Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati

Ernazarov N.E., PhD, dots., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
Rashidov Sh.E Toshkent Kimyo xalqaro universiteti MPF-s-124U guruh magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinib, tarmoqning YaIMdagi ulushi, asosiy kapitalga investitsiyalar va bandlik ko‘rsatkichlari asosida uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni yoritilgan hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish sanoati, investitsiya, investitsion jozibadorlik, asosiy kapitalga investitsiyalar, infratuzilma, iqtisodiy o‘sish, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnologiyalar, investitsiya samaradorligi, bandlik.

Аннотация: В данной статье проанализирована экономическая значимость привлечения инвестиций в предприятия строительной отрасли, раскрыта роль отрасли в экономическом развитии на основе показателей её доли в ВВП, инвестиций в основной капитал и занятости, а также разработаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: строительная отрасль, инвестиции, инвестиционная привлекательность, инвестиции в основной капитал, инфраструктура, экономический рост, государственно-частное партнёрство, инновационные технологии, эффективность инвестиций, занятость.

Abstract: This article analyzes the economic importance of attracting investments into construction enterprises, highlights the role of the sector in economic development based on its share in GDP, investments in fixed capital, and employment indicators, and provides relevant recommendations.

Keywords: construction industry, investment, investment attractiveness, fixed

capital investment, infrastructure, economic growth, public-private partnership, innovative technologies, investment efficiency, employment.

Bugun duyo miqyosida qurilish sanoati iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat ega hisoblanib, YaIMga qo‘shgan hissasi va infratuzilmani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, qurilish sanoati korxonalariga investitsiyalarni jalb etish 2025-yilda jahonda qurilish bozori 17,05 trillion dollarni tashkil etishi, 2026-yilda esa 6,8% o‘sish sur’ati 18,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda[1].

Mamlakatda qurilish sohasiga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim strategiya bo‘lib hisoblanadi. Shu bois qurilish korxonalariga investitsiya oqimining faolligini oshirish, investitsiya loyihalarini samarali loyihalash hamda boshqarishni ta’minlash zarur hisoblanadi. Bu eng dolzarb masalalaridan biridir investitsiyani aniq bir loyihaga samarali yo‘naltirishning optimal yo‘lini aniqlash ham muhumdir. Ushbu sanoat tarmog‘ining investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lsa, investitsiya resurslari hajmi ortadi va ular uchun sarflanadigan xarajatlarning kamayishiga erishiladi. Aytish joizki, yuqori investitsion jozibadorlik investorlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib, kiritmoqchi bo`lgan investitsiyalarni ko‘proq jalb qilishda ahamiyatga egdir. Bunday tartib qurilish korxonalarining moliyaviy rivojlanishini tezlashtiradi va bozor raqobatbardoshligini oshiradi.

Qurilish sanoati korxonalariga investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan bozorlar va barqaror infratuzilma loyihalaridagi yuqori o‘sish salohiyati investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qurilish korxonalarida investitsion faollikni kuchaytirish investitsiya loyihalarini samarali ishlab chiqish va

[1] The Business Research Company. Elektron resurs: https://www.thebusinessresearchcompany.com

boshqarishni ta’minlashni taqozo etadi. Bu allbatda hududlarda qurilish ishlarining hajmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan, Samarqand viloyatining hududlarida qurilish ishlari hajmining so‘ngi yillar davomida o‘sib borish holatini aks ettirgan.

2022–2025 yillar davomida Samarqand viloyatida investitsiya va qurilish sohalarida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilib, bu hudud iqtisodiy rivojlanishining muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi tahlil qilinganda, 2022 yildagi 18 917,1 mlrd so‘mdan 2025 yilda 38 281,9 mlrd so‘mgacha o‘sgani kuzatiladi. Bu qariyb 2 baravarlik o‘sishni tashkil etib, hududda investitsion muhit yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur o‘sish infratuzilma loyihalarining ko‘payishi, xususiy sektor faolligining oshishi va davlat investitsiya dasturlarining kengayishi bilan izohlanadi.

1-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili[2]

T/r		yillar			
		2022	**2023**	**2024**	**2025**
1	Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar - jami, mlrd so‘m	18917,1	25 717,1	28 946,9	38 281,9
2	Uy-joylarning umumiy maydoni ming m²	477,1	303,9	561,3	436,5
3	Umumta'lim maktablari, ming o‘quvchi o‘rin	12,8	9,0	32,4	9,2
4	Kasalxonalar, ming yotoq	0,3	585,0	300,0	650,0

[2] https://samstat.uz/uz/- ma`lumotlari asosida tayyorlangan.

5	Poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov	0,1	-	200,0	100,0
6	Qurilish ishlari, mlrd so‘m	8 895,4	10 177,6	15 563,9	18 637,5

Qurilish ishlari hajmi ham izchil o‘sib, 8 895,4 mlrd so‘mdan 18 637,5 mlrd so‘mga yetgan. Bu investitsiyalar amalda qurilish va ishlab chiqarish jarayonlariga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi. Qurilish sohasidagi o‘sish yangi uy-joylar va sanoat ob’ektlari, ijtimoiy infratuzilma (maktab, shifoxona) qurilishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu sohada asosiy kapitalni shakllantirish hamda eskirgan ishlab chiqarish fondlarini yangilash bilan bir qatorda, aholi turmush darajasini oshirish, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois qurilish sanoatida investitsiya faoliyatining mavjud holatini, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini hamda tarmoq va hududlar kesimida shakllanayotgan asosiy tendensiyalarni tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2013–2024 yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida qurilish sohasi va investitsiya faoliyati muhim tarkibiy element sifatida izchil rivojlanib borgan. Mazkur davrda qurilish tarmog‘ining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi, qurilish ishlari hajmi hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar holati ijobiy tendensiyani namoyon etadi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2013-2024 yillarda investitsiya va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari[3]

[3] https://stat.uz/uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma`lumotlari asosida tayyorlangan.

Yillar	YaIMdagi qurilishning ulushi, %	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi mlrd.so‘m	O‘tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya (AKKI) mlrd.so‘m	AKKIning YaIMdagi ulushi, %	Qurilishda band aholi soni, ming kishi	Jami bandlar soni qurilishda bandlarning ulushi, foizda
2013	8	15219,3	117,2	30490,1	19,9	1144	9,1
2014	8,1	20060,4	117,6	37646,2	20,2	1183,3	9,2
2015	7,4	25423,1	118,8	44810,4	20,2	1222,2	9,3
2016	6,0	29413,9	107,2	51232	20,1	1263,6	9,5
2017	5,7	34698	106	72155,2	20,2	1290	9,5
2018	6,1	51156,5	114,3	124231,3	26,2	1205,5	9,1
2019	6,2	71156,5	122,9	195927,3	32,9	1324,6	9,8
2020	6,7	88130,3	109,5	210195,1	31,5	1305,6	9,9
2021	6,6	107492	106,8	239552,6	29,2	1350,8	10
2022	7,8	130790,9	106,6	266240,0	26,7	1314,3	9,7
2023	7,5	150792,6	107	356071,4	29,6	1502,2	10,8
2024	7,0	233832,9	108,8	507490,2	34,9	1360,1	9,8

1-jadvalda tahlil natijalariga ko‘ra, qurilish tarmog‘ining YAIMdagi ulushi 2013 yilda 8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ma’lum darajada pasayib, 2017 yilda 5,7 foizgacha tushgan. Bu holat iqtisodiyotda boshqa tarmoqlarning tezroq o‘sishi ko‘zatilgan. Shundan so‘ng, 2020–2022 yillarda ushbu ko‘rsatkich qayta o‘sib, 7,8 foizgacha yetgan, 2024 yilda esa 7,0 foizni tashkil etgan. Umuman olganda,

qurilish tarmog‘i iqtisodiyotda barqaror o‘rinni saqlab qolmoqda.

Qurilish ishlari hajmi tahlil qilinayotgan davrda keskin o‘sgan 2013 yilda 15 219,3 mlrd so‘m va 2024 yilda 233 832,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu qariyb 15 baravarlik o‘sishni tashkil etadi. Shu bilan birga, har yillik o‘sish sur’atlari asosan 106–122% oralig‘ida bo‘lib, tarmoqda barqaror rivojlanish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar** hajmi ham yuqori sur’atlarda o‘sgan 2013 yilda 30 490,1 mlrd so‘m va 2024 yilda 507 490,2 mlrd so‘m. Bu 16 baravardan ortiq o‘sishni anglatadi. Shuningdek, **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning** YAIMdagi ulushi 2013 yildagi 19,9 foizdan 2024 yilda 34,9 foizgacha oshgan. Bu mamlakatda investitsiya siyosatining faollashgani va kapital qo‘yilmalarning iqtisodiyotdagi roli ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 2013–2024 yillarda O‘zbekistonda investitsiya va qurilish faoliyati iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biriga aylangan. Qurilish tarmog‘idagi barqaror o‘sish, investitsiyalar hajmining ortishi va bandlikning kengayishi mamlakatda infratuzilmaviy rivojlanishni ta’minlab, umumiy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, kelgusida ushbu sohada samaradorlikni yanada oshirish uchun investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlarni mazmunidan kelib chiqib qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

-qurilish korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish uchun ularning investitsion jozibadorligini oshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish; shaffoflik va korporativ boshqaruvni kuchaytirish; reyting baholash tizimini joriy etish. Natijada investorlar ishonchi ortib, kapital oqimi ko‘payadi.

-qurilish sohasida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim. Natijada yirik investitsiyalar jalb qilinadi.

-kapitalni samarali taqsimlash uchun loyihalarni chuqur tahlil qilish talab etiladi. **Buning uchun** risklarni baholash modellarini joriy qilish va raqamli modellashtirish texnologiyalarini qo‘llash zarur. Natijada samarasiz loyihalarga mablag‘ yo‘naltirish kamayadi.

-zamonaviy texnologiyalar investitsiya samaradorligini oshiradi. Buning uchun “aqlli qurilish” (smart construction) texnologiyalarini joriy etish, raqamli platformalar orqali loyihalarni boshqarish va energiya tejovchi texnologiyalarni qo‘llash zarur. Natijada uzoq muddatli samaradorlik oshadi.

-investitsiyalarni samarali boshqarish uchun malakali kadrlar zarur. Buning uchun investitsiya menejmenti bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy tajribani o‘rganish va doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Natijasida boshqaruv sifati yaxshilanadi.

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish uchun institutsional, moliyaviy va texnologik islohotlarni kompleks ravishda amalga oshirish talab etiladi. Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligi oshadi, investitsiya oqimi ko‘payadi va iqtisodiy o‘sish barqarorlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli “Qurilish tarmog‘ini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-sonli

“O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori

4. The Business Research Company. Elektron resurs: https://www.thebusinessresearchcompany.com

5. https://samstat.uz/uz/- ma`lumotlari asosida tayyorlangan.

6. https://stat.uz/uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma`lumotlari asosida tayyorlangan.